

**10-SINF JAHONNING IQTISODIY VA IJTIMOIY GEOGRAFIYASINING JAHON  
MAMLAKATLARINING IJTIMOIY-IQTISODIY RIVOJLANGANLIGI BO‘YICHA  
TASNIFI MAVZUSIDA INTERAKTIV METODLARDAN FOYDALANISH**

**Isayev Akbarjon Abdulhamidovich**

*Andijon davlat universiteti,*

+998902690978

**Arabboyev Asliddin Rafiqjon o’g’li**

+998901403566

**Annotatsiya:** *Interfaol metodlar – o’quvchilarning faollikka chorlovchi metodlardan hisoblanadi. Ushbu maqolamizda zamon talabidan kelib chiqqan holda 10-sinf Jahonning iqtisodiy va ijtimoiy geografiyasi kursining jahon mamlakatlarining ijtimoiy-iqtisodiy rivojlanganligi bo‘yicha tasnifi mavzusida interaktiv metodlardan foydalanish bo‘yicha yozilgan.*

**Kalit so’zlar:** *Jadvalga yozing metodi, Chizig’iga tutashtiring metodi, Pisa usuli,*

## **KIRISH**

Bugungi kunda maktablarda ta’lim sifatini oshirish Yangi O’zbekiston taraqqiyotining yakka-yu yagona yo’li hisoblanadi. Chunki, yurtimizning rivojlanishiga o’zining hissasini qo’shayotgan injinermi yoki haydovchi, shifokormi yoki tarbiyachi barcha-barchasi ta’lim orqali o’zining yuqori natijalariga erishadi. Yurtboshimiz tomonidan 2023-yil “Insonga e’tibor va sifatli ta’lim yili” deb e’lon qilinishida juda katta ma’no va mazmun bor. Prezidentning ta’kidlashicha, ta’lim sifatini oshirish Yangi O’zbekiston taraqqiyotining yakkayu yagona to‘g’ri yo’lidir: «Yusuf Xos Hojib bobomiz aytganlaridek, „Zakovat bor joyda ulug’lik bo’ladi, bilim bor joyda buyuklik bo’ladi“. Shuning uchun ushbu sohada boshlagan islohotlarimizni davom ettirishimiz, ta’lim dargohlariga borib, o’qituvchi va murabbiylar bilan ko’proq muloqot qilib, sifatni oshirish bo‘yicha ular qo’ygan masalalarni birgalikda hal qilishimiz zarur». [2]

## **ADABIYOTLAR TAHLILI VA METODOLOGIYA**

O’quvchilarni o’qitishda an’anaviy metodlarni tanlash mezonlari katta miqdorda ishlab chiqilgan. Keyingi yillarda didaktik olimlarning ishlarida ularning ko’p turlari keltiriladi. Interfaol metodlarni tanlash mezoni – ularning ta’lim va tarbiyani rivojlantirish masalarni yechishga yuqori yo’nalganligidir. Bu mezon turli xil metodlarni u yoki bu doiradagi vazifalarni yechish imkoniyatlarini baholash yo’li bilan joriy etiladi. Chunki ijtimoiy tajriba elementlarini o’zlashtirishda ularning imkoniyatlari turlichadir. Interfaol metodlarni tanlashning navbatdagi mezoni ularning ta’lim mazmuni xususiyatiga mos kelishdir. Metod mazmuni harakatlanish qismi sifatida ham aniqlanadi. Shu boisdan, bu mezonning hisobga olinishi shubhasiz. Bir metod yordamida mavzu mazmuni to’laroq ochib berilsa, boshqasi uni ijobiy o’zlashtirishga imkon tug’diradi. Interfaol metodlarning tanlashning yana bir mezoni ularning talabalar o’quv imkoniyatlariga to’liq mos kelishi, ya’ni mazmunli o’quv jarayoni uchun ichki va tashqi muhit birligini ta’minlashdir. Interfaol

o'qitish metodlaridan foydalanishda pedagogning xususiy imkoniyatlariga mos kelishi lozim. Bu o'qituvchining o'qitish metodlari nazariyasi va amaliyoti bilan o'quv jarayoning qonuniyatlari bilan bilish nazariyalari ta'lif mazmuni nazariyasi va boshqa mavjud qonunlar bilan qurollanganlik darajasini hisobga oladi.

10-sinf Jahonning iqtisodiy va ijtimoiy geografiyasini darsligi mualliflari V.N.Federko, N.I.Safarova, J.A.Ismatov, Y.E.Nazaralievlar yozishgan bo'lib, darslik hozirgi zamonda talablariga javob beradigan darajada qilib tayyorlangan.

Jahonning iqtisodiy va ijtimoiy geografiyasiga juda ko'plab adabiyotlarni, o'quv uslubiy majmualarni qo'shimcha adabiyotlar safiga kiritilsa bo'ladi.

10-sinf geografiya darsligi yordamida zamonaqiy dunyo, uning yirik mintaqalari hamda xalqaro iqtisodiy va siyosiy tizimda muhim o'rinnegi egallagan davlatlarga xos ijtimoiy-iqtisodiy geografik xususiyatlari o'rganiladi.

Darslikning asosiy maqsadi o'quvchilarga jahon, uning yirik mintaqasi va mamlakatlari iqtisodiy va ijtimoiy geografiyasiga doir zamonaqiy bilim berish, mustaqil bilim olish va uni amaliyotda qo'llashdan iborat.

Darslik ikki qismidan iborat “Umumiy geografik tavsifi” va Jahonning regional tavsifi” bo'limlaridan iborat.

Darslik “Jahonning umumiy tavsifi” va “Jahonning regional tavsifi” bo'limlaridan iborat. Umumiy qismning asosiy vazifalari jahonning siyosiy xaritasi, tabiiy resurslari, aholisi va xo'jaligi haqidagi umumiy ilmiy tasavvurni shakllantirishdan iborat.

Darslikning regional qismida jahonning yirik mintaqalari — Yevropa, Osiyo, Afrika, Amerika va Avstraliyaning siyosiy xaritasi, tabiiy resurslari, aholisi va iqtisodiyotining o'ziga xos xususiyatlari ochib berilgan. Shuningdek, barcha qit'alardagi tayanch, ya'ni har tomonlama e'tiborga sazovor davlatlarning geografik tavsiflariga bag'ishlangan mavzular ham ushbu bo'limdan joy olgan. Eng katta e'tibor respublikamiz joylashgan Osiyo qit'asi mamlakatlari qaratilgan. Mamlakatlarning iqtisodiy-geografik tavsifi mazkur fanda qabul qilingan va sinalgan uslubiy yondashuvdan foydalangan holda bajarildi. Bunda geografik o'rinnegi, tabiiy sharoit va resurslar aholi xo'jaligidagi ahamiyati nuqtayi nazaridan baholandi. Darslikni yozishda mualliflar Birlashgan Millatlar Tashkiloti, Xalqaro valyuta fondi, BMTning Oziq-ovqat va qishloq xo'jaligi tashkiloti (FAO), BMTning Sanoatni rivojlantirish tashkiloti (UNIDO), “British Petroleum” kompaniyasi, AQSH Geologik xizmati, xorijiy davlatlar statistik boshqarmalarining rasmiy ma'lumotlari, Rossiya Federatsiyasi, AQSH, Yevropa va Osiyo mamlakatlarida nashr etilgan ma'lumotnomalar, statistik to'plamlar, geografik atlaslar va boshqa ilmiy-uslubiy materiallardan foydalandi. Darslikda dunyo va davlatlar aholisining soni, 1.07.2020-yil holatiga ko'ra, BMT Aholishunoslik byurosining rasmiy ma'lumotlari bo'yicha berilgan.

## NATIJALAR

Quyidagi interfaol metodlar orqali Juhon mamlakatlarining ijtimoiy-iqtisodiy rivojlanganligi bo'yicha tasnifi mavzusida ko'rib chiqiladi.

I.Jadvalga yozing metodi.

Ushbu metoddan o'quvchilar Juhon mamlakatlarining BMT tomonidan 3 ta yirik blokidagi davlatlarni o'z bloklariga ko'ra yozib chiqishadi.

Masalan; AQSH, Kanada, Yaponiya, Avstraliya, Yangi Zelandiya, Isroil, Koreya Respublikasi, Singapur va Janubiy Afrika Respublikasi; Osiyo, Afrika, Amerika hamda Okeaniyaning aksariyat mamlakatlari; Mongoliya, O'zbekiston

Rivojlangan davlatlar	Rivojlanayotgan davlatlar	O'tish iqtisodiyotidagi davlatlar
AQSH	Osiyo, Afrika, Amerika va Okeaniyaning aksariyat mamlakatlari	O'zbekiston


II.Chizig'iga tutashtiring metodi.

Ushbu metodda o'quvchilar rivojlangan tarkibga kiruvchi “Katta yettilik” davlatlarini maydoni bilan tutashtiradilar.

Nº	Mamlakat nomi	Maydoni, ming km <sup>2</sup>
1.	AQSH	302.1
2.	Kanada	243.8
3.	Yaponiya	547
4.	Germaniya	357.4
5.	Fransiya	377.9
6.	Buyuk Britaniya	9984.6
7.	Italiya	9519.4

III.Pisa usuli.

Mazkur usul o'quvchilarni mantiqiy fikrlashga, ularda ijodiy qobiliyatni rivojlantirishga xizmat qiladi. Quyidagi davatlarni maydonini aniqlang.



### XULOSA

Ushbu maqolamdan xulosa o'mida shuni aytamanki, 10-sinf jahonning iqtisodiy va ijtimoiy geografiyasining jahon mamlakatlarining ijtimoiy-iqtisodiy rivojlanganligi bo'yicha tasnifi mavzusida interaktiv metodlardan foydalanish, ta'lim samaradorligining o'sishiga

o'quvchilarni faollikka, tashabbuskorlikka, intuluvchan shaxs sifatida komil inson bo'l shiga xizmat qiladi.

#### **FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR:**

1.V.N.Federko, N.I.Safarova, J.A.Ismatov, Y.E.Nazaraliyeva 10-sinf Geografiya darsligi. Yangi nashir-2022, -192 b.

2. <https://www.gazeta.uz/oz/2022/12/20/sifatli-talim/> - internet sayti.

3.X.B.Nikadambayeva, D.I.Ro'ziyeva, Z.A.Karabazov “O'rta Osiyo tabiiy geografiyasi”ni interfaol metodlardan foydalanib o'qitish imkoniyatlari-Toshkent.2017-y, -224 b.

4.Mamadaliyev Javlonbek “Materiklar va Okeanlar tabiiy geografiyasi uchun mavzulashtirilgan metodlar jamlanmasi” (6-sinf misolida umumiy o'rta ta'lim maktabi geografiya fani o'qituvchilari uchun mo'ljallangan).Andijon-2019. -96 b.

5.Isayev A.A., Abdurahmonova H. Farg'ona vodiysi shahar aglomeratsiyalari rivojlanishiga transport omilining ta'siri // Journal of Geography and Natural Resources.<http://sjifactor.com/passport.php?id=22047>

<https://topjournals.uz/index.php/jgnr>

6.А.А.Исаев Ўзбекистонда автомобиль ва жамоат транспортида йўловчи ташиш динамикасидаги ўзгаришлар // Journal of Geography and Natural Resources.<http://sjifactor.com/passport.php?id=22047> <https://doi.org/10.37547/supsci-jgnr-02-03-03>

7.The use of interactive techniques in the lesson of the geological structure of Uzbekistan and development of the earth's surface in the 7<sup>th</sup> grade geography// Galaxy International interdisciplinary research journal (GIIRJ) ISSN (E): 2347-6915 Volume 10, Issue 4, April. (2022) 300-303. (Hammualliflari Xabibullayeva M.N, Po'latov U., Abdumalikov H.Q)

8.The use of new pedagogical Technologies on the topic of the political map of the world of socio-economic geography lessons// Texas Journla of Multidisciplinary Studies ISSN NO: 2770-0003 04.08.-2022. 6-10 (Hammualliflari Abdurahmonova H, Yuldasheva S)